

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**"RO'YXATGA OLINDI"**

**№ VM-343-53402-4.04**

**"1" iyul 2003 y.**

**"TASDIQLANDI"**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy va o'rta maxsus**

**ta'lim vazirligi**

---

**"8" iyul 2003 y.**

**ISHLAB CHIQARISH VA IQTISODIY  
FAOLIYATNI BOSHQARISH  
fanidan  
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"**

**ta'lim sohasidagi 5340200 - "Menejment"**

**bakalavriat yo'nalishi uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** dots. Sobirjonova D.,  
k.o'q. Sulaymonov B.

**Taqrizchilar:** prof. Zaynuddinov Sh.,  
dots. Maxmudov B.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni boshqarish bir vaqtning o'zida fikrlash va harakat tizimi bo'lib, "Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish" fanining asosiy vazifasi ishlab chiqarishni boshqarish jarayoni haqida aniq tahliliy ma'lumotlar beradi. Bu esa korxonalarining iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishini tanlab o'z faoliyatini bozorga qaratishni talab etadi.

"Ishlab chiqarish va iqtisodiyot faoliyatini boshqarish"-o'zining doimiy va tizimli tahlili asosida bozor ehtiyojini aniqlab, samarali tovarlar ishlab chiqishga yo'naltiradi.

Mazkur kurs ma'ruzalari talabalarga ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etishda, tanlangan maqsadlarga erishishda nazariy bilim va ko'nikmalar beradi.

Soglasno novogo gosudarstvennogo obrazovatel'nogo standarta Respubliki Uzbekistan razrabotana programma po predmetu "Upravlenie proizvodstvenno-ekonomicheskoy deyatel'nosti". V svyazi s etim poyavilas neobxodimost razrabotki programmi po dannoy distsipline.

В условиях рыночной экономики управление производством является одновременно системой мышления и действия. Главная задача предмета состоит в том, чтобы раскрыть основные проблемы управления производственно-экономическим процессом и ориентации на рынок - это основное условие определяющее конкурентоспособность предприятия.

Управление производственно экономической деятельностью по существу представляет собой постоянный и систематический анализ потребностей рынка в разработке новых товаров.

Данный курс лекции поможет студентам освоить основные теоретические аспекты необходимые для решения проблем, связанных с управлением производства в выборе решения для достижения цели.

On Republic of Uzbekistan an output (exit) from a basis spent reforms till the programs "the National program on training of personnel" introduction in sphere of formation (education) the new educational standards, where is stipulated study of a subject "Management manufacture".

In conditions of market economy management manufacture is of simultaneously system thinking and system action. The main task of a subject is to give the clear instruction (indication) on the basic processes of manufacture and to show, that orientation to the market - it the basic condition determining an economic and social choice the enterprise.

Management manufacture in essence represents the constant and regular analysis of needs (requirements) of the market deducing (removing) on development of the effective goods.

The given rate of lecture will help the students to master the basic theoretical aspects necessary for the decision of problems connected by production management in a choice of the decision for achievement of the purpose.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

## **1. SO'Z BOSHI**

O'zbekiston o'zining istiqbolli kelajagini barpo etish maqsadida iqtisodiyotini rivojlantirishining asosi qilib bozor iqtisodiyotini tanladi.

Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun etarli shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va tashkiliy tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Natijada bozor infratuzilmasi jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda.

Ma'lumki, har qanday iqtisodiyotning asosini ishlab chiqarish tashkil etadi. Ishlab chiqarishning qanchalik rivojlanganligi o'sha mamlakat iqtisodiy darajasini ko'rsatib beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda har qanday davlat ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi esa uning qanday boshqarilishiga bog'liq bo'ladi.

O'z navbatida boshqaruv jarayoni ham murakkab va serqirrali faoliyat hisoblanadi. Har bir korxonada ichki va tashqi omillar tabiatidan kelib chiqqan holda, o'ziga xos ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lib, nimani, qanday qilib, qancha va kimga ishlab chiqarish muammosini hal etish bo'lsa, boshqaruv bu munosabatlarni amalga oshirishda asosiy dastak vazifasini bajaradi.

Bu ikkala faoliyat jarayonining yo'nalishlarini ma'lum maqsadga muvofiqlashtirish zaruriyati "Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish" dasturini yaratilishiga sabab bo'ladi.

Ushbu dastur barcha iqtisodiyot mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni boshqarish sir-asrorlari, qonun-qoidalarini o'rganishga qaratilgan. Bu fan talabalarga ishlab chiqarishni boshqarishni ilmiy o'rgatish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltirilgan.

### **O'quv fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

"Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish" fanini o'qitishdan maqsad talabalarda boshqarish muammolariga qiziqishni uyg'otish, ularda amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq tug'dirishdir. Chunki hozir boshqarish asoslarini o'rganayotgan talabalar kelgusida boshqaruv tizimining xodimlari, kichik, o'rta va yirik jamoalarning rahbarlari, korxonalar hamda firmalarning iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-texnik faoliyatining turli sohalarini boshqarish bo'yicha loyihalar, tadbirlar ishlab chiquvchilar bo'lib etishadilar. Boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish ham ularning zimmasiga tushadi.

Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarishning asosi uning ob'ektiv iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa qonunlarga tayangan asl ilmiyligidir. Bu qonunlarni ma'lum sharoitlarda o'qib-o'rganib, xo'jalik rahbarlari respublika xalq xo'jaligini boshqarishning strategiyasi va taktikasini aniqlaydilar.

Iqtisodiy islohotlarni olg'a surish, iqtisodni umumjahon xo'jaligiga kirib borishi uchun boshqaruv munosabatlari mexanizmini mukammal bilish kerak.

Ushbu fanning maqsadi ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish tushunchasining asosiy g'oyalarini talabalarga etkazib berish, "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasi bo'yicha tayyorlanadigan bakalavr kadrlarga iqtisodiy munosabatlarni boshqarish sir-asrorlarini o'rgatish, uni tahlil qilish va yuzaga keladigan muammolarning to'g'ri echimini topa bilish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir.

### **Mazkur fanni o'rgatish vazifalari:**

- talabalarga faoliyatni tashkil qilish va boshqarish asoslarini o'rgatish;
- qarorlarni to'g'ri qabul qilishga doir nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- menejerlarni tanlash va tayyorlashda zarur bo'lgan umumiy bilimlar berish;
- menejment uslublari asosida boshqaruv faoliyatini tartibga solish.

"Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish" fani ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa fanlar bilan aloqadordir.

U dastavval "Iqtisodiy nazariya", "Menejment", "Marketing", "Strategik menejment", "Tadbirkorlikni boshqarish", "Xodimlarni boshqarish" kabi fanlar bilan bog'liqdir. Uni

bu fan axborot, huquq, sotsiologiya, psixologiya va mehnat fiziologiyasi kabi fanlar bilan ham aloqadorlikda bo'ladi.

### **Fanni o'qitish bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar**

Bu talablar quyidagilardan iborat:

- talabalar fanni o'rganish jarayonida har bir o'tilgan mavzu bo'yicha belgilangan miqdordan reyting ballarini to'plashlari, fanning "tayanch" iboralarini chuqur o'zlashtirishlari, test savollari asosida o'z bilimlarini sinab borishlari lozim;
- mustaqil ish sifatida referatlar, fanga oid chizmalar va jadvallar tayyorlashlari lozim;
- fanni o'zlashtirish natijasida "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasida bo'lg'usi bakalavr boshqaruv faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usullarini mukammal egallashlari lozim.

### **Seminar mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar**

Seminar mashg'ulot mavzulari namunaviy dastur asosida belgilanib, har bir mavzuga kiritilgan savollar va tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati bilan birga alohida uslubiy qo'llanma shaklida ko'paytiriladi. Seminar rejasidagi savollar dastur doirasida tuzilib, ma'ruzada bayon qilinadigan masalalar bilan mazmunan bir xil bo'lsada, shaklan ularni takrorlamaydi.

### **Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi**

Oliy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 420 shu jumladan 120 - ma'ruza, 120 - amaliy mashg'ulot, 180 - mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

### **Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari**

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash reyting tizimi asosida amalga oshiriladi. O'quv rejasida fanga ajratilgan soat yuklamasidan kelib chiqib, aniqlanadigan reyting ballari (240) nazoratning alohida turlariga quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- joriy baholashga seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soat yuklamasini 70 foizi (84,0 ball);
- oraliq baholashga ma'ruza darslariga ajratilgan soat yuklamasining 70 foizi (84,0 ball);
- yakuniy baholashga o'quv soatlar yuklamasining 30 foizi (72,0 ball).

Joriy baholash uchun ajratiladigan reyting ballari talabalarning seminar darslaridagi faolligi, ilmiy referat tayyorlaganligi va boshqa rejalashtirilgan ishlarni (mustaqil ish bajarish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash va h.k) bajarganligi uchun qo'yiladi.

Oraliq baholashda talabalarning ma'ruza darslaridagi faolligi hisobga olinadi, hamda ikki marta oraliq nazorat (yozma ish, test yoki nazoratning boshqa turi) o'tkazilib ularga ham tegishli ball ajratiladi.

Yakuniy baholash ballari talabalarning tayanch so'z va iboralar bo'yicha bajargan yozma ishi uchun qo'yiladi.

### **Kompyuter, axborot va yalpi pedagogik texnologiyalarni qo'llash**

"Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish" kursini o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarida foydalanish imkoniyatlari quyidagidan iborat:

- fanni mazmunini ko'rsatuvchi ko'rgazmali albomlardan foydalanish;
- ma'ruza matnidagi shakliy va raqamli ma'lumotlarni oldindan tayyorlab, talabalarga etkazish. Bu o'qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi;
- test savollarini tuzish;
- "tayanch" iboralar ishlab chiqib, ularning talabalar tomonidan ularni mukammal o'zlashtirishini ta'minlash;
- ayrim mavzular bo'yicha ma'ruzalarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqaradigan yuqori tashkilotlarning ma'sul xodimlari tomonidan o'tishini ta'minlash;
- masofaviy o'qitishni tashkil etish bo'yicha kompyuterda bajariladigan dasturlardan foydalanish;
- talabalarga yozilgan ayrim ma'ruzalarni xorijiy universitetlar professorlari tomonidan o'qitilib, teleekran orqali namoyish etishga va boshqalar.

### **INTERNET tarmoqlari mavjud bo'lgan fanga taalluqli saytlar ro'yxati:**

1. <http://www.cer.uz>
2. <http://www.referat.ru>
3. <http://www.plekhanov.ru>
4. <http://www.litera.ru>

### **Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

"Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish" fani kunduzgi bo'lim "Menejment" yo'nalishida o'qitilib, oraliq, joriy baholash orqali boshqarilib o'quv jarayonini oxirida yakuniy baholash bilan tugallanadi.

Ular ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlarda o'z bilimlarini chuqurlashtiradilar. Talabalar olgan bilim va ko'nikmalar yuqori kurslarda o'tiladigan boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun ham asos bo'ladi va bu bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi.

### **Fanni o'rgatishda quyidagilarga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi:**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari va ma'ruzalarida iqtisodiy munosabatlar, jumladan bozor faoliyatiga oid fikrlar, ko'rsatmalarni tegishli mavzularda ishlatish;
- talabalarni bozor faoliyatiga taalluqli yangi qo'llanmalar bilan darslarda tanishtirib borish;
- har bir mavzu bo'yicha jadval, chizma va grafiklar tayyorlab darsda ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish.

## **2. FAN DASTURI**

### **Boshqaruv mexanizmining tuzilishi va tamoyillari**

Boshqaruv mexanizmining tuzilishi va uning vazifalari. Xo'jalik boshqaruvi mexanizmi. Korxonaning boshqarmasi. Ishlab chiqarish boshqaruvining modeli. Xo'jalik boshqaruvining asosiy tamoyillari. Maqsadli yondashuv va uyg'unlik tamoyili. Uzlüksizlik va ishonchlilik tamoyili mutanosiblik va denamizm tamoyillari. Boshqaruv funksiyalar taqsimlanishining demokratik tamoyili. Boshqaruv metodlarining ilmiylik va asoslanganlik tamoyili. Boshqaruv samaradorligi tamoyili. Shaxsiy jamoa va davlat manfaatlarining uyg'unligi tamoyili.

### **Boshqaruv organlarining tuzilishi va funksiyalari**

Korxonaning boshqaruv organlari tuzilishi. Chiziqli boshqaruv. Boshqaruvning chiziqli-shtabli shakli. Funktsional boshqaruv. Matritsali boshqaruv. Kasbiy soha va tuzilmaviy yo'nalish Korxonaning boshqarmasi. Tsex boshqaruvini tashkil qilish. Tsex boshqaruvining sxemasi. Kontsern boshqaruvi mexanizmining xususiyatlari. Boshqaruv xodimlari.

### **Boshqaruv mexanizmining dastaklari**

Dastakning tuzilishi va mohiyati. Xo'jalik boshqaruvi dastagining boshqarish va nazorat qilish funksiyalari. Xo'jalik boshqaruvi mexanizmining dastagi.

Me'yor va normativlar. Me'yorlashtirish tushunchasi va funktsiyalari. Dinamik me'yorlashtirish. Me'yorlashtirish vazifalari. Mehnat resurslarini me'yorlashtirish. Xom-ashyo resurslarini me'yorlashtirish.

### **Boshqaruv mexanizmining ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlarning boshqaruv tizimidagi o'rni va roli. Boshqaruv tizimi. Rejalashtirish va boshqarish ko'rsatkichlarining strukturasi.

Ko'rsatkichlarning tavsifi. Ko'rsatkichlarning funktsiyalari. Ko'rsatkichlarning darajalanishi. Ko'rsatkichlar tanlovining qoidasi. Ko'rsatkichlarning korxonada maqsadlari va vazifalariga mos kelishi. Ishlab chiqish sohasida modellashtirish. Iqtisodiy matematik modellashtirish. Modellar qurilishi. Modellashtirish vazifalari. Modellar turlari. Matritsiyalik modellar.

Boshqaruvda axborot. Axborot tanlovining uch bosqichi: fizik, semantik, programmatik.

### **Ishlab chiqarish jarayoni-boshqaruv mexanizmining asosi**

Ishlab chiqarish jarayonining shakllanishi. Ishlab chiqarish jarayoniga tavsif. g'rdamchi jarayon. Operatsiya. Ishlab chiqarish jarayonini loyihalashtirish. Ishlab chiqarish tsikli va uning muhit bo'yicha davomiyligi. Texnologik qayta ishlash vaqti. Texnologik xizmat ko'rsatish vaqti. Ishda tanaffus vaqti. Ishlab chiqarish tsiklining iqtisodiy funktsiyasi. Ishlab chiqarish turlari: seriyali va ommaviy. Ishlab chiqarish jarayonida xizmat ko'rsatishni tashkil etish, uning funktsiyalari va vazifalari.

### **Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va boshqarishning bog'liqligi**

Rejalashtirish funktsiyalari va vazifalari. Vaqt va resurslarning aloqasi. Korxonani boshqarish va rejalashtirish. Rejalashtirishning asosiy vazifalari. Rejalashtirish texnologiyasi. Korxonada faoliyatini rejalashtirishning yiriklashtirilgan tizimi. Korxonada reja ijrosi. Korxonada rejalashtirishning tizimi. Rejalashtirishning tarmoq xususiyatlari. Maxsulotning hayotiylik davri va rejalashtirish muddatining aloqasi. Korxonada rejalashtirishning koordinatsiyasi. O'zaro bo'ysunish tashkiliy tuzilma va rejalashtirish kooperatsiyasi. Ishlab chiqarishning markazlashgan boshqaruvi. Korxonada xodimlarining manfaatlarini hisobga olib rejalashtirish.

### **Korxonada strategiyasini amalga oshirishning reja-iqtisodiy metodlari**

Strategik boshqaruv funktsiyalarining tizimi. Uzoq muddatli va joriy rejalashtirish. Korxonada reja va mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bilan o'zaro ta'siri. Rejalashtirishning turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari: strategik, uzoq muddatli, joriy va operatsion-taqvimiy.



Rejalashtirish intervallari. Tsexlar, uchastkalar, brigada funktsional bo'limlar va laboratoriyalarni ichki rejalashtirish. Sanoatda, qurilishda, transportda reja ko'rsatkichlari va normativlari. Operativ-taqvimiy rejalashtirish. Maxsulot ishlab chiqarish va sotishni rejalashtirish. Buyurtmalar portfelining shakllanishi. Buyurtmalar portfeli shakllanishining 9 sektorli matritsasi. Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik tayyorgarligi. Sotishning doimiylikini ta'minlash.

### **Investitsiyalar va loyihalarni boshqarish**

Investitsiya. Yangilikni kiritish va uni investitsiyalash. Yangilik kiritish loyihalarini boshqarish. Loyihani tayyorlash vazifasi va tuzilmasi. Loyihani texnik tayyorlashni tashkil etish. Maxsulotni loyihalash. Ishlab chiqarish texnologiyasini loyihalashtirish. Texnologik jihozlar va vositalarni loyihalashtirish. Loyihaviy hujjatlashtirish. Ishlab chiqarishni mexanik tayyorlash loyihasini boshqarish.

Loyihani bajarilishini rejalashtirish va nazorat. Yangi mashinani texnik tayyorlash tasmali grafigi (trakt grafigi). Yangi mahsulot ishlab chiqarish aloqa grafigi loyihasi.

### **Korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyati**

Xalqaro mehnat taqsimoti shakllari. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi. Ishlab chiqarishning xalqaro kooperativlashishi. Proteksionizm. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish organlari. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish metodlari (usullari).

### **Ishlab chiqarishni boshqarishda: operatsion tizimni yaratish**

Boshqaruv operatsiyalariga tizimli yondashuv. Operatsion funktsiya. Operatsion tizim va uning tizimosti funktsiyalari.

Operatsiyalarni boshqarish mohiyati. Samarali operatsiya. Ishlab chiqarish doirasida strategik qaror.

### **Mahsulot sifatini boshqarish**

Sifat tasniflari. Mahsulot sifatini baholash va uni boshqarish zaruriyati. Sifatli tovar tushunchasi. Iqtisodiy samara. Xom-ashyo sifatini oshirishdan olinadigan iqtisodiy samara. Mashinalar sifatini oshirish samaradorligi. Mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Sifat menejmenti. Sifatni nazorat qilish. Nazorat qilish bosqichlari.

### **Ishlab chiqarishni boshqarishda etik masalalar**

Ishlab chiqarishni boshqaruvchi va etik masalalari. Rahbar amaliyotida ijtimoiy ma'suliyat va ishchan etika masalalari.

Ishlab chiqarishni boshqaruvchi-tashqi muhit: iste'molchilar va etkazib beruvchilar muammolari, buyumni butlovchi havfsizlik; munitsipal organlar muammosi, atrof-muhitga ta'sir, ta'qiqlar yoki ishlab chiqarishning aralashishi.

Ishlab chiqarishni boshqaruvchi-ichki muhit: xodimlar masalasi, xavfsizlik, sog'liqni saqlash, shaxs huquqi, sifatni ta'minlash bo'yicha dasturlarni sinash, yuqori rahbariyat va mulkchilik masalalari, asosiy fondlar, axborotlarni tarqatish.

### **Ishlab chiqarishda mahsulot va jarayonlarni loyihalashtirish**

Loyihalar tanlovi va mezonlari. Mahsulotlar loyihalashtirish mezonlari: qiymat, iqtisodiy, majburiy ishlatish, tejamkorligi, sifat, unsur, o'lcham, quvvat va mustahkamlik, xizmat muddati, foydalanishdagi ishonchliligi, xizmat ko'rsatishga talablar, ko'p tomonlama foydalanishlik, foydalanish xavfsizligi.

Ishlab chiqarish jarayonini loyihalashtirish mezonlari: ishlab chiqarish quvvati, iqtisodiy samaradorlik, egiluvchanlik, ishlab chiqaruvchanlik, ishonchlilik, ta'mir muhtojligi, standartlashish va natijalar doimiyliigi, havfsizlik, sanoat sanitariya va gigienasi, ishchilar hayotiy ehtiyojlarini qondirish.

Ishlab chiqarish tizimini zamonaviy rivojlantirish darajasi. Avtomatlashtirish loyiha tizimi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqaruv tizimi (ASUP). Omborlarga joylashtirish tizimini va tovar berishni (jo'natish) avtomatlashtirish. Ishlab chiqarishni boshqarishda integrallashga avtomatlashtirish tizimi.

### **Xizmat ko'rsatish doirasida mahsulotlar va jarayonlarni loyihalash**

Xizmat ko'rsatish doirasi tasnifi: ishlab chiqarish jarayonida iste'molchining ishtiroki, mahsulot individuallashtirishning yuqori darajasi, o'ta ko'p mehnat talab ishlar.

Omillarni hisobga olgan holda xizmat ko'rsatishni loyihalash xususiyatlari: korxonaning joylashgan o'rnini iste'molchilar joylashgan o'rnini bilan aniqlanadi; iste'molchilar ehtiyoji va hoxishi odatda oldinda boradi; samaradorlik tushunchasi, ishni kalendarli rejalashtirish iste'molchilarga bog'liqligi; iste'molchilar bilan muomaladagi yaxshi muloqotlar; ish samaradorligi mehnat bilan o'lchanadi; yirik korxonalar xizmat ko'rsatish doirasiga mos emasligi.

### **Joylashgan o'rnini va ishlab chiqarish quvvatlariga asoslangan loyihalash qarorlar**

Korxonaning quvvati va soni. Korxonaning joylashgan o'rniga asoslangan qarorlarning darajalari. Makro daraja-kontinent, mamlakat, viloyat va shahar qarorlari. Makro daraja-korxonalar uchun ma'lum maydonlarni yoki binoni tanlash. Makro va mikro darajada qaralayotgan asosiy omillar.

Korxonalar loyihalash. Ishlab chiqarishni rejalash turlari. Chiziqli yoki yo'nalishli rejalash. Chegaralangan vaziyatli rejalash. Korxonani loyihalashtirish jarayonlari,

(boshlang'ich ma'lumotlar yig'ish, ishlab chiqarish resurslari, turlari va sifatini aniqlash, har bir ishlab chiqarish uchastkasi uchun talab qilnigan maydonni aniqlash, hamma o'lchamlari va joylashgan o'rni bilan ko'rsatilgan ishlab chiqarish resurslari aniq o'rni aniqlash).

Korxonalarni loyihalashtirishdagi ijtimoiy texnik yondashuv. Mehnatni me'yorlashtirish. Ishlab chiqarishni boshqarish: operatsion tizimni funktsiyalashtirish.

### **Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish**

Kalendar rejalashtirish tavsifi. Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirishning ikki o'zgaruvchanligi. Chiqarilayotgan mahsulot rejasiga bog'liq ishlab chiqarish harajatlari tavsifi. Tezkor boshqaruvning umumiy jarayoni.

Uch asosiy strategiya: doimiy ishchi kuchi miqdorida doimiy ishlab chiqarish hajmi; doimiy ishchi kuchi miqdorida o'zgaruvchan ishlab chiqarish hajmi; o'zgaruvchan ishchi kuchi miqdorida o'zgaruvchan ishlab chiqarish hajmi.

### **Zahiralarni boshqarish**

Zahiralar vazifasi. Zahiralarning uch asosiy turi: tugallanuvchi materiallar zahirasi; tugallanmagan ishlab chiqarish zahiralari; tayyor mahsulotlar zahirasi. Zahiralar va xarajatlarni boshqarish bo'yicha qarorlar.

Zahiralarni boshqarishga bog'liq ishlab chiqarish xarajatlarining to'rt turi: sotib olingan predmet qiymati; buyurtmani rasmiylashtirishdagi xarajatlar; material-texnik zahiralarni saqlashdagi xarajatlar.

Zahiralarning yo'qligidan kelib chiqadigan xarajatlar. Talab bilan bog'liq bo'lmagan zahiralarni boshqarish tizimi.

### **Ishlab chiqarish samaradorligini boshqarishga kompleksli yondashuv**

Ishlab chiqarish samaradorligi masalalariga kompleks yondashuv. Sifat va ishlab chiqarish samaradorligi. Ishlab chiqarish samaradorligi va tashqi muhit: energiyaning yuqori qiymati, davlat tomonidan qat'iy tartibga solish, iqtisodiy tsikllar, soliq siyosati, xizmat doirasining o'sishi, ijtimoiy omillar, kapital to'plash, iqtisodiyotda mulkchilik tavsifi, xalqaro raqobat.

Ishlab chiqarish samaradorligi va tashqi muhit. Ishlab chiqarish samaradorligi mezonlari bo'yicha boshqarish: maqsad va vazifalar, ishlab chiqarish samaradorligiga mo'ljallanish; ishlab chiqarish samaradorligi mezonlari bo'yicha istiqbolli rejalashtirish.

Tashkilot va ishlab chiqarish samaradorligi: texnologiya, ishni loyihalash, tashkilot tuzilmasi, ma'suliyat. Motivatsiya va ishlab chiqarish samaradorligi: mehnat jarayoni sifati; mehnatga haq to'lash va xizmat bo'yicha ko'tarilish; yuqori texnologiya sharoitida inson omili: texnologiya gumanizatsiya; ishlab chiqarish samaradorligi nazorati; sifat

nazorati; Kommunikatsiya, qaror qabul qilish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash maqsadidagi rahbarlik. Ishlab chiqarish samaradorligi va aloqani tashkil etish. Ishlab chiqarish samaradorligi va etakchilik. Tashkilotning barcha darajalarida ishlab chiqarish samaradorligi.

Mehnat ishlab chiqarish samaradorligini boshqarishdagi yangilik: ish o'rnini va xizmat bo'yicha ko'tarilishdagi uslubiy raqobat; yangi bilim va yangiliklar; tadbirkor yoki yosh kompaniya xodimi bo'lishga ancha yuqori nisbiylik; yirik tashkilotlarda yangi fikrlashlar.

### **Tashkilotlarni strategik boshqarishning mohiyati**

"Strategik boshqaruv" iborasini aniqlash. Strategik yondashuv rivojlanishi bosqichlari. Operativ va strategik boshqaruvni taqqoslash.

Ishlab chiqarish jarayonining raqobat ustunliklari. Raqobat ustunliklari turlari. Mahsulot raqobat ustunligi-narx tavsifi; differentsiatsiya. Tovarining bozordagi holatida raqobat ustunligi. Raqobat ustunligini yaratish strategiyasi: bahodagi etakchilik, differentsiatsiya, ma'lum iste'molchilar qiziqishlariga e'tiborni kontsentratsiyalash.

Strategik boshqaruv xususiyatlari. Strategik boshqaruv mazmuni va tuzilmasi: muhit tahlili; missiya va maqsadlar; strategiyani tanlash; strategiyani bajarish; strategiyani amalga oshirishni baholash va nazorat.

### **Muhit tahlilini o'tkazish**

Makromuhit tahlili: iqtisodiy komponent, huquqiy komponent, ijtimoiy komponent, texnologik komponent. Tashqi muhitni kuzatish tizimi.

Bog'liq bo'lmagan muhit tahlili: xaridorlar, etkazib beruvchilar, raqobatchilar, bozor, ishchi kuchi.

Tashkilot ichki muxiti tahlili. Kadrlar kesimi-menejerlar va ishchilar o'zaro ta'siri, yollash, o'qitish, kadrlarni ko'tarish, mehnat natijalarini baholash va barqarorlashtirish.

Tashkiliy kesim-kommunikatsion jarayon, tashkiliy tuzilma, me'yor, qoida, huquq va ma'suliyatni taqsimlash; bo'ysunish ierarxiyasi. Ishlab chiqarish kesimi-mahsulot tayyorlash, ta'minot va ombor xo'jaligini yuritish, texnologik parkka xizmat qilish, tadqiqotlar va ishlanmalar o'tkazish. Marketing kesimi-mahsulot strategiyasi va narxni shakllantirish, mahsulotning bozordagi harakati strategiyasi, sotish bozorini tanlash va taqsimlash tizimi. Moliyaviy kesim-lozim bo'lgan likvidlik darajasini ushlab va fodorlikni ta'minlash, investitsiya imkoniyatlarini yaratish. Tashkiliy madaniyat.

Muhit tahlili metodlari. SVOD metodi. Imkoniyatlar matritsasi. Xavf matritsasi. Muhit profilini tuzish.

### **Tashkilot missiyasi va maqsadlarini shakllantirish**

Tashkilot missiyasi. Qiziqishlarni tashuvchilar: tashkilot mulkdorlari, tashkilot xodimlari, mahsulot xaridorlari. Ishchan sheriklar, mahalliy hamkorlar, jamiyat. Missiyani ishlash omillari. Maqsadlar ierarxiyasi. O'sish maqsadlari. Maqsadga talablar. Maqsadlarni belgilash. Maqsadlarni belgilash fazalari. Maqsadlarni o'rnatish usullari.

### **Tashkilot strategiyasini ishlab chiqish**

Tashkilot strategiyasi mohiyati. Strategiyaning ikki tushunasi. Strategiya turlari. Ishlab chiqarishning rivojlanishi. Konsentratsiyalashtirilgan o'sish strategiyasi. Integratsiyalashtirilgan o'sish strategiyasi. Diversifikatsiyalashtirilgan o'sish strategiyasi. Qisqartirish strategiyasi. Tashkilot strategiyasini aniqlash. Strategiyaning tanlash jarayoni: joriy strategiya hal etish, buyurtma portfeli tahlilini o'tkazish, strategiyani tanlash va tanlangan strategiyani baholash.

Strategiyani bajarish bosqichlari va nazorat. Tashkiliy tuzilma strategik o'zgarishlar ob'ekti sifatida. Tashkiliy madaniyat strategik o'zgarishlar ob'ekti sifatida. Tashkilotlarda strategik o'zgarishlar. Strategik nazorat-axborotlarga talablar, ko'rsatkichlarni o'rnatish, o'zgarishlar tizimi. Natijalarni taqqoslash va baholash, korrektirovkalash.

### **Boshqaruvda mahsulot kontseptsiyasi**

Mahsulot tushunchasi. Mahsulot tushunchasini aniqlovchi omillar. Mahsulotga qarashlar evolyutsiyasi. Mahsulotning asosiy tashkil etuvchilari, funktsional tarkibi va sifat. Mahsulot markasi. Mahsulot imidji. G'illoflash va etiketka. Kafolat.

### **Mahsulot dinamikasi**

Mahsulot hayotiy tsikli. Hayotiy tsikl fazalari: mahsulotning bozorga chiqishi; o'sish; to'yinish; bozordan chiqib ketish. Mahsulotning hayotiy tsiklini alohida fazalardagi strategiyasi.

Yangi mahsulot yaratish strategiyasi. Yangi mahsulot yaratishdagi yondashuvlar. Yangi mahsulot yaratish bosqichlari.

### **Tashkilotning mahsulot strategiyasi**

Raqobat strategiyasi. Raqobat kuchlari: xom-ashyo, material, butlovchi qismlar va yarim fabrikalar etkazib beruvchilar; mahsulot xaridorlari; analitik mahsulotlarning potentsial ishlab chiqaruvchilari; o'rinbosar mahsulot ishlab chiqaruvchilar. Raqobatchi kelajakdagi maqsadi tahlili. Raqobatchining o'zi va boshqalar haqidagi tahminlari tahlili. Joriy strategiya tahlili. Raqobatchining quyidagi funktsional doiradagi faoliyati imkoniyatlari tahlili: mahsulotlar; taqsimlash tizimi; marketing va sotish; ishlab chiqarish; tadqiqot va ishlanmalar; boshqaruvning umumiy imkoniyatlari; buyurtma

portfeli; kadrlar. Raqobatchining jismoniy resurslari tahlilining ishlab chiqarish quvvatlari sig'imi, yoshi, zavod o'lchami va joylashishi jihozlari avtomatlashtirilish darajasi, egiluvchanlik va nominal texnologik jarayon, xom-ashyo qiymati. Raqobatchi xulqi portfelini tuzilishi. Marketingni strategik boshqaruvga kiritish.

### **Inson potentsialini ishlab chiqarishda foydalanish strategiyasi**

Tashkilot va insonlar o'zaro ta'siri. Inson va tashkilot muhiti o'zaro ta'sirini yaratishdagi yondashuvlar. Insonning tashkilotga kirishi. Tashkilot muhitida xodim xulqining shaxsiy asoslari. Xodim xulqining kriterial bazasi: joylashishi, ishdan qoniqish, ish bilan mashg'ul bo'lish, qadriyatlar, tamoyillar.

Individ va guruh, ularning o'zaro ta'siri. Inson xulqini ishlab chiqarishga (adaptatsiyasi) moslashishi va o'zgarishi.

## **3. SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZUSI**

### **Boshqaruv mexanizmi tamoyillari va tuzilmasi**

Boshqaruvni boshqaruvchi organlarning vazifalari: korxonada faoliyatining uzoq muddatli istiqbolli yo'nalishlari va maqsadlarning samarali strategik kursini ishlash.

Strategik kursni bosqichma-bosqich yiriklashtirish, rivojlantirish va uni joriy va operativ boshqaruv darajasiga etkazish; korxonaning umumiy strategik va joriy vazifalarini rag'batlantirish va ularni kundalik funktsiyalar darajasiga etkazish; kadrlarni o'z o'rniga qo'yish tanlovi; korxonada xodimlari qabul qilgan topshiriqlarni belgilangan funktsiyalari ijrosini tashkil etish; topshiriqlarni sifatli bajarilishning ishonchli, doimiy nazoratini tashkil etish; korxonada va uning tuzilmaviy bo'linmalari operativ va kundalik faoliyatini tartibga solish; korxonada faoliyatini ishlab chiqarish hajmini va mahsulot sotilishini oshirish hisobiga samaradorlikni oshirish.

Korxonada tamoyillari va maqsadlari ustivorligi siyosatini amalga oshirish. Boshqaruvning xo'jalik mexanizmi. Mamlakat intellektual-ishlab chiqarish potentsiali tarkibi. Ishlab chiqarishni boshqarishni tashkil etish tamoyillari: funktsional (kasbiy yo'nalish), miqdoriy, keng tarqalgan va vaqtinchalik umumiy va xususiy tamoyillar.

### **Boshqaruv organlarining funktsiyalari va tuzilmasi**

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi ustivorligi va kamchiliklari-chiziqli, chiziqli-shtabli, funktsional, matritsaviy.

Tsex korxonaning asosiy ishlab chiqarish zvenosi sifatida. Tsexni boshqarish chizmasi. Tsexning funktsional bo'linishi: reja-dispecher byurosi, buxgalteriya, kadrlar bo'limi, texnologik bo'lim, mexanika va energetika bo'limi.

Kontsern yagona boshqaruv tizimi doirasida diversifikatsiyalashgan kapital birlashmasining asosiy shakllaridan biri sifatida. Kontsernni markaziy boshqarishining nazorat doirasi. Kontsernni boshqarishning markaziy funksiyasi.

### **Boshqaruv mexanizmi dastaklari**

Xo'jalik boshqaruvining boshqaruvchi va nazorat etuvchi funksiyalari dastaklari. Ishlab chiqarish jarayoni tavsifini aniqlovchi dastak: me'yorlar, miqdoriy ko'rsatkichlar (parametrlar); model va modellashtirish; axborot; sonli (rejali) hisobot jabhalari.

### **Boshqaruv mexanizmi ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar tuzilmasi: mazmuni bo'yicha-qiymatli, tabiiy-buyumli mehnat; boshqaruv va rejalashtirish tizimidagi funksiyalari bo'yicha-bahoreja, anolitik-hisob; boshqaruv darajasi bo'yicha-umumfabrika; tsex; brigada; individual; foydalanish ob'ektlari bo'yicha-buyum; agregat; detal; operatsiya.

Ko'rsatkichlar turli-tumanligi-tabiiy, ijtimoiy mehnat, qiymat, aralash. Funksional-mazmunan belgilangan ko'rsatkichlar quyidagilarga bo'linadi- baholi, rejali, analitik-hisobli.

Xo'jalik boshqaruvining ko'rsatkichlar tizimi. Korxonada xo'jalik boshqaruv mexanizmidagi ko'rsatkichlar va me'yorlar munosabatining ierarxiya chizmasi. Ishlab chiqarish doirasida modellashtirish. Modellashtirish qoidasi. Ishlab chiqarishni modellashtirish. Mahsulot realizatsiyasini modellashtirish. Xom-ashyo sotib olishni modellashtirish. Mahsulot tannarxini modellashtirish.

### **Ishlab chiqarish jarayoni-boshqaruv mexanizmini qurish asosi**

Ishlab chiqarish jarayoni va uning turlari-asosiy, yordamchi. Ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalashtirish bosqichlari. Buyumni loyihalashtirishning axborot bazasi.

Ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi. Mutaxassis yo'nalishi. Uzlusizlik. Optimallik. Parallellik. Vaqtinchalik ishlab chiqarish davr tarkibi. Mahsulotni texnologik ishlov vaqti, ishlab chiqarishni texnologik xizmat ko'rsatish vaqti, ishdagi tanaffus vaqti. Ishlab chiqarish turi.

### **Seriyalashtirish koeffitsienti. Korxonada faoliyatini boshqarish va rejalashtirish munosabati**

Reja tuzilmasi. Korxonada rejalarini guruhlashtirish: bajarilish muddati bo'yicha-tezkor-kalendar, joriy, o'rtacha muddatli, uzoq muddatli, strategiya.

Yo'nalish funksiyalariga qarab: ishlab chiqarish (mahsulot tayyorlash) tijorat (tayyor mahsulotni sotish) va ishlab chiqarishni moddiy-texnik ta'minlanishi. Moliyaviy ishlab chiqarishni texnik rivojlantirishga taalluqli, mehnatga qarab rejalashtirish. Ish haqiga qarab, ishchi tarkibida ijtimoiy quvvatlanishiga, moliyaviy korxonani boshqarish

darajasiga qarab: umumiy firma, tsexlararo, funktsional bo'limlar ish rejasiga va laboratoriya; brigada va uchastkalar ish rejasiga. Ish turiga qarab: o'zlashtirilgan ishlab chiqarish o'zlashtirish jarayonidagi, loyihalashtirilayotgan.

Sanoatda foydalanadigan ko'rsatkich va me'yorlar: batafsil detallashtirilgan (bo'laklangan) nomenklatura va mahsulot ishlab chiqarish hajmi (bajarilgan ishlarni) oy, dekada, kundalik, yil davomida, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga (bajarilgan ishlarning) taalluqli baho ko'rsatkichlari (kategoriya; navlik og'ish); personal tarkibi va bir kishi uchun mahsulot ishlab chiqarishni takomillashtirish (tayyorlash); ish haqi jamg'armasi; material harajatlari, mahsulot braki natijasida normalarni yo'qotish.

### **Korxonada strategiyasini amalga oshirishning iqtisodiy-reja uslub**

Ishlab chiqarishni ichki rejalashtirish. Tezkor-kalendar rejalashtirish va uni tarkibi: korxonada joriy rejasini qismlashtirish, uning vazifalarini har bir tsex, bo'lim, uchastka, brigada, ishchilarga etkazish; materiallar, dastgoh, (zagotovka) tayyorlanma ish joylariga etkazib berishni tashkil etish, tayyor mahsulotni tashib chiqarish, ishlab chiqarish jarayoni ustidan to'liq nazoratni ta'minlash, ish buzilish va nosozliklarga tezkorlik bilan bartaraf etish.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni rejalashtirish. Buyurtmalar portfelini shakllantirish. Buyurtma portfelini shakllantirish to'qqiz sektorli matritsasi. Mahsulot sotilishini barqarorligini ta'minlash.

### **Investitsiyalar va loyihalarni boshqarish**

Moliyaviy va real investitsiyalar. Yangiliklarni investitsiyalash. Investitsiya maqsadlari: yangi mahsulotni yaratish va o'zlashtirib olish (ishlab chiqarishni); texnik qayta qurollantirish; ishlab chiqarishni kengaytirish; rekonstruktsiya. Yangilik loyihasi tuzilmasi va uni tayyorlash. Loyiha tuzilmasi va tayyorlash vazifalari. Loyihani texnik tayyorlashni tashkil etish. Buyumni loyihalash. Ishlab chiqarish texnologiyasini texnologik vositalarni loyihalashtirish.

Loyihali hujjatlashtirish. Ishlab chiqarishni texnik tayyorlash loyihasini boshqarish.

### **Korxonaning tashqi-iqtisodiy faoliyati**

Xalqaro ixtisoslashishning paydo bo'lishining asosiy shakllari. Xalqaro kooperatsiyalashish shakllari. TIF va uning turlari. Tashqi iqtisodiy faoliyat boshqaruv organlarining tuzilishi. TIF boshqaruvning mintaqaviy darajasi.

### **Ishlab chiqarishni boshqarish: operatsion (tezkor) tizimni yaratish**

Operatsion tizim va uning funktsiyalari. Operatsiyaning samaradorligini aniqlash. Bozor qiymati va uning darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Operatsion tizim tasnifi: kichik



seriyani ishlab chiqarish, ommaviy ishlab chiqarish tizimi, qayta ishlovchi uzluksiz jarayon tizimi. Raqobatbardoshlik va uni ta'minlash usullari.

### **Mahsulot sifatini boshqarish**

Sifat tasnifi. Mahsulot sifatini baholash va uni boshqarish zaruriyati. Mahsulot sifatini nazorat qilish. Sifat to'g'risida axborot yig'ish. Sifatli tovar belgilari. Iqtisodiy samara. Mahsulot sifatini yaxshilash. Mashinalar sifatini oshirish samaradorligi. Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarish vositalari sifati. Sifat menejmenti.

### **Ishlab chiqarishni boshqarishda etika masalalari**

Ijtimoiy ma'suliyat va ishchan etika ishlab chiqarishni boshqarishdagi markaziy zveno sifatida. Ishlab chiqarish menejerining tashkiliy etikasi. Ishlab chiqarishni boshqarishdagi ishchan etika me'yorlari. Tashqi muhit bilan bog'liq etik masalalari.

### **Ishlab chiqarish jarayoni va buyumlarini loyihalashtirish**

Loyihalash mezonlarini aniqlash va ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulotlarni loyihalashning muqobil variantini tanlash. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi va ishlab chiqarishni boshqarish-zamonaviy ishlab chiqarish tizimi egiluvchanligini ta'minlovchi tarkibiy unsur sifatida.

### **Xizmat ko'rsatish sohasida jarayonlarni va mahsulotlarni loyihalashtirish**

Xizmat ko'rsatish doirasidagi operatsiyalarni loyihalashtirish xususiyatlari. Iste'molchilar harakatining yuqori darajasi. Iste'molchi buyurtmasi bo'yicha xizmatni individuallashtirish zaruriyati, ko'pchilik xususiyatlarning ko'p mehnat talabligi.

### **Ishlab chiqarishning quvvati va joylashgan o'rniga qarab asoslangan loyihali qarorlar**

Korxonalar soni va ularning quvvati. Har bir ob'ektni joylashgan o'rni. Moddiy-texnik ob'ektlarning miqdor va ishlab chiqarish unumdorligini hal etishda samaradorlik va marketing omillari. Korxonaning joylashgan o'rni haqidagi qarorning ikki darajasi. Makrodaraja omillari. Mikrodaraja omillari. Korxonani loyihalash jarayoni.

### **Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish**

Ishlab chiqarishni operativ boshqarishning asosiy unsurlari. Ishlab chiqarishni operativ boshqarish tizimining asosiy maqsadi. Mahsulot ishlab chiqarishning kalendar-rejalashtirishning tavsifi. O'zini oqlovchi talab. Mahsulot ishlab chiqarish rejasining qator ishlab chiqarish harajatlarining butun o'lchami bilan o'zaro aloqasi. Ishlab chiqarishni rejalashtirishning uch strategiyasi.

## **Zahiralarni boshqarish**

Zahiralarning uch turi-asosiy xom-ashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot. Zahiralarni boshqarishda qo'llaniladigan qarorlarning ishlab chiqarish harajatlariga ta'siri-sotib olingan buyum qiymati; buyurtmalarni rasmiylashtirish harajatlari; moddiy-texnik zahiralarni saqlash xarajatlari; zahiralarning yo'qligidan kelib chiqadigan harajatlar. Talabga bog'liq bo'lmagan zahiralarni boshqarish tizimi. Talabga bog'liq bo'lgan zahiralarni boshqarish tizimi. Zahiralarni boshqarishga yagoncha yondashuv. Rantning hisob-reja grafigi.

### **Ishlab chiqarish unumdorligini boshqarishga kompleksli yondashuv**

Ishlab chiqarish unumdorligiga tizimli yondashuv. Ishlab chiqarish unumdorligi va tashqi muhit. Ishlab chiqarish unumdorligi va ichki muhit.

Ishlab chiqarish unumdorligi mezonlari bo'yicha boshqarish. Tashkilot va ishlab chiqarish unumdorligi: texnologiya, ishni loyihalashtirish, tashkilot tuzilmasi, mas'uliyat. Motivatsiya va ishlab chiqarish unumdorligi: mehnat sifati, yuqori texnologiya sharoitida inson omili, ishlab chiqarish unumdorligi nazorati, sifat nazorati.

Tashkiliy aloqalar va ishlab chiqarish unumdorligi: aloqa texnikasi, tashqi muhit bilan aloqa, odamlar bilan aloqa.

Etakchilik va ishlab chiqarish unumdorlik. Tashkilotning barcha darajalaridagi ishlab chiqarish unumdorligi. Mehnat ishlab chiqarish unumdorligini boshqarishdagi yangilik.

### **Tashkilotlarni strategik boshqarishning mohiyati**

Operativ va strategik boshqarishni taqqoslash. Nostrategik boshqaruvning paydo bo'lishi. Strategik boshqaruv va firmaning raqobatdoshlik ustunligi. Raqobat ustunligini yaratishning uch strategiyasi. Baho ustunligini yaratishning asosiy manbalari. Iste'molchilar qiziqishlarini o'rganish-strategik differentsiyasining boshlang'ich nuqtasi. Strategiyani qo'llashning asosiy sharti. Boshqaruv strategiyasidan foydalanishni chegaralash. Strategik boshqaruv tuzilmasi.

### **Muhit tahlilini o'tkazish**

Tashkilot muhitini tahlilining uch tashkil etuvchilari. Xaridorlar profili tavsifining tashkil etuvchilari. Xaridorlarning sotib olish qobiliyatini aniqlovchi omillar. Tashkilotning kuchli va kuchsiz tomonining tahlili. Imkoniyatlar matritsasi. Xavf matritsasi. Muhit profili jadvali.

### **Tashkilot missiyasi va maqsadlarining shakllanishi**

Missiya tushunchasi. Missiyani ishlash omillari. Maqsadlarni belgilash yo'nalishlari: daromadlar doirasida; mijozlar bilan ishlash doirasida; xodimlar bilan ishlash doirasida; ijtimoiy mas'uliyat doirasida. Maqsadlarni o'rnatish fazilatlarini.

### **Tashkilot strategiyasini ishlab chiqish**

Strategiyani ishlashga yondashuvlar. Tashkilot strategiyasini to'rt turi. Konsentratsiyalangan o'sish strategiyasi bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash strategiyasi, bozor rivojlanishi strategiyasi, mahsulotning takomillashish strategiyasi.

Integratsiyalashgan o'sish strategiyasi - qayta vertikal integratsiya strategiyasi, ilgari lama vertikal integratsiya strategiyasi. Diversifikatsiyalashgan o'sish strategiyasi - markazlashgan, gorizontal, konglomerativ diversifikatsiya strategiyalari. Qisqartirish strategiyasi: tugatilish, "hosil yig'ish", xarajatlarni qisqartirish strategiyalari.

### **Boshqaruvda mahsulot kontseptsiyasi**

Mahsulot markasi. Mahsulot imidji. Mahsulot imidjini tashkil qiluvchi to'rt omil. Firma imidjida aks etadigan mahsulot tarkibi. Tovar etiketkasi va g'iloflanish (upakovka). G'iloflanishni amalga oshirish funksiyasi. Mahsulotni tashkil etuvchilari.

### **Mahsulot dinamikasi**

Mahsulotning hayotiy davri. Tovar hayotiy davrining umumiy tavsifi. Mahsulot hayotiy davrining fazalari. Sanoat mahsulotining egri hayotiy davri. Mahsulot hayotiy davrining alohida fazalaridagi strategiyasi. Innovator va tadqiqotchilar strategiyasi. Yangi mahsulot yaratishdagi yondashuvlar.

### **Tashkilotning mahsulot strategiyasi**

Raqobat kuchlari. Raqobatni tahlil qilishdagi yondashuv. Raqobatchi maqsadlarini tahlil qilishdagi zaruriy tavsiflar. Raqobat tahlili chizmasi. Tashkilot bosh biznes portfeli strategiyasi. Joriy strategiya tahlili. Mahsulot portfeli tahlili "O'sish-bozor hissasi" matritsasi. "Sohaning jalb eta oluvchan raqobat pozitsiyasi" matritsasi.

### **Ishlab chiqarishda inson potentsialidan foydalanish strategiyasi**

Individ nuqtai nazaridan odamni tashkiliy muhitiga kiritish modeli. Tashkilot nuqtai nazaridan insonni tashkiliy muhitga kiritish modeli. Insonning tashkilotdagi o'rni va roli. Inson va tashkilotning o'rgatilgan o'zaro ikki yondashuvi. Nizolarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlar. Nizolarni bartaraf etish usullari.

## **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA NAMOIYISHI MATERIALLAR RO'YXATI**

## **"Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish" fani bo'yicha ko'rgazmali amaliy o'quv materiallari**

- Boshqaruv mexanizmi tamoyillari va tuzilmasi.
- Boshqaruv organlari funktsiyalari.
- Boshqaruv mexanizmi ko'rsatkichlari.
- Ishlab chiqarish jarayoni boshqaruv mexanizmini qurish asosi.
- Ishlab chiqarishni boshqarish: operatsion tizim.
- Mahsulot sifatini boshqarish.
- Zahiralarni boshqarish.
- Tashkilot missiyasi va maqsadlari.

### **Slaydlar ro'yxati**

- Korxonada faoliyatini boshqarish.
- Korxonada strategiyasi.
- Investitsiyalar va loyihalarni boshqarish.
- Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati.
- Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish.
- Ishlab chiqarish unumdorligini boshqarish.
- Mahsulot dinamikasi.

### **Axborot manbalari ro'yxati**

- Yillik statistik ma'lumotlar.
- Korxonada (firma) hisobotlari.
- Tadbirkorlar uyushmasi axborotlari.
- Birja axborotlari.
- Bank axborotlari.
- Televidenie, radio yangiliklari.
- Aktsiya kurslari jadvallari.
- Voqealar sharhi.

## **5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI**

### **"Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni boshqarish" fanidan nazorat qilish turlari quyidagicha**

1. Fan uchun belgilangan maksimal ball - 240,0;
2. Fan uchun saralash bali - 132,0. Shu jumladan:

- joriy baholash - 84,0 ball;
- oraliq baholash - 84,0 ball;
- yakuniy baholash - 72,0 ball.

## **6. ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. -T.: O'zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov I.A. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: -T.: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 3. - T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. -T.: O'zbekiston, 1996.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T. 5. -T.: O'zbekiston, 1996.
8. Karimov I.A. Zamonaviy Kadrlar-taraqqiyotimizning muhim omilidir. T. 6. -T.: O'zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. -T.: O'zbekiston, 1999.
10. Boumen K. Osnovi strategicheskogo menedjmenta. - M.: YuNITI, 1997.
11. Fatxutdinov R.A. Strategicheskij menedjment. Uchebnik. -M.: Delo. 2001.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Vixanskiy O.S., Naumov A.I. Menedjment: chelovek, strategiya, organizatsiya, protsess. Uchebnik. - M.: Gardarika, 1996.
2. Gerchikova I.N. Menedjment. - M.: YuNITI, 1995.
3. Kotler F. Marketing, menejment. Per. s angl. –SPb.: 1999.
4. Menedjment sistem kachestv / Uchebnoe posobie. -M.: Standart 1997.
5. Meskon M., Albert M., Xidouri F. Osnovi menedjmenta. -M.: 1997.
6. Metodicheskie rekomendatsii po otsenke effektivnosti investitsionnix proektov inform elektro. -M.: Ekonomika, 1994.
7. Portfel konkurentsii i upravlenie finansami. Yu.B.Rubin. - M.: Somintek, 1996.

8. Tompson A.A., Striklend A.Dj. Strategicheskiy menejment. Isskustvo razrabotki i realizatsii strategii. Per. s angl. pod red. P.G.Zaytsev, M.I.Sokolovoy. - M: Banki i birji, YuNITI, 1998.
9. Upravlenie organizatsiey / Uchebnik. -M.: INFRA-M, 2000.
10. Fatxutdinov R.A. Innolsatsionniy menejment / Uchebnik. -M.: Intel-sintez, 2000.
11. Fatxutdinov R.A. Upravlencheskie resheniya / Uchebnik. -M.: INFRA-M, 2001.
12. Fatxutdinov R.A. Organizatsiya proizvodstva / Uchebnik. - M.: INFRA-M, 2000.
13. Fatxutdinov R.A. Konkurentosposobnost: ekonomika, strategiya, upravlenie / Uchebnik. -M.: INFRA-M, 2000.